

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI

QULDASHEVA MA‘MURA IKROMJON QIZI

SHAHRIXONSOY KONUS YOYILMASI TUPROQLARI
TRANSFORMATSIYASI, UNUMDORLIGI VA AGROGEOKIMYOVIIY
XOSSALARI

03.00.13 – Tuproqshunoslik

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona-2026

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологической наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological
sciennces**

Quldasheva Ma‘mura Ikromjon qizi

Shahrixonsoy konus yoyilmasi tuproqlari transformatsiyasi, unumdorligi va
agrogeokimyoviy xossalari 3

Кулдашева Маъмура Икромжон кизи

Агрогеохимические свойства, плодородие и трансформация почв
конуса выноса р. Шахрихансая21

Kuldasheva Mamura Ikromjon qizi

Agrogeochemical properties, fertility, and transformation of soils in the
alluvial fan of the Shakhrikhansay river41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.B.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI

QULDASHEVA MA‘MURA IKROMJON QIZI

SHAHRIXONSOY KONUS YOYILMASI TUPROQLARI
TRANSFORMATSIYASI, UNUMDORLIGI VA AGROGEOKIMYOVIIY
XOSSALARI

03.00.13 – Tuproqshunoslik

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Farg‘ona-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/BI658 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifas (www.fardu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Ulug'bek Burxonovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xoldarov Davronbek Madaminovich
biologiya fanlari doktori, dotsent

Mansurov Sherali Siddiqovich
biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.B.10.07- raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «12» 08, soat 11 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (790-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «28» 07 da tarqatildi.

(2026-yil «28» 07.9 raqamli reyestr bayonnomasi)



G'.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

S.X.Zakirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash majlisi ilmiy kotibi, q.x.f.d., professor

A.T.Turdaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda “tuproqlar degradatsiyasi taxminan 1,9 milliard gektar maydonni tashkil etib, bu ko‘rsatkich har yili 5 – 7 million gektarga oshib bormoqda, bu esa yer resurslarining holati tez yomonlashib borayotganini ko‘rsatadi. 2050-yilga kelib, sayyoramizda aholi soni 9,3 mlrd. ga yetishi taxmin qilinayotganligini e‘tiborga olsak, bu holat tuproq resurslari defitsitini keltirib chiqarishi orqali oziq-ovqat xavfsizligi borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi”.¹ Shu boisdan hozirda mavjud tuproq resurslaridan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini oshirish, saqlash ushbu masalalarni hal etishda eng dolzarb vazifalardan hisoblanib, bu borada tuproqlarning xossa va xususiyatlarini aniqlash, geokimyoviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali unumdorligini oshirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda tuproq unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish, insonning sug‘orish bilan bog‘liq ta‘siridagi o‘zgarishlarini tadqiq qilish, landshaft bloklarida elementlar miqdoriy tarkibi, migratsiya va akkumulyatsiyalanishi hamda differentsiatsiyasi kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda tuproq qoplamida sug‘orish suvi keltirilmalari ta‘siridagi va sug‘orish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni tahlil qilish, muayyan vaqt davomida ushbu ta‘sir natijasida tuproqlarning transformatsiyasini o‘rganish, shuningdek, ushbu tadqiqotlarni elementar tarkib tadqiqi, ya‘ni geokimyoviy va biogeokimyoviy tadqiqotlar natijalari bilan uzviy bog‘lagan holda olib borishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda sug‘oriladigan tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash, tuproq jarayonlarini yaxshilash borasida keng miqyosli nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 20,2 mln. gektar yerlarning atigi 20,7 foizi sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi. So‘nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug‘oriladigan yerlar 24 foizga kamayganligi, kelgusi 30 yilda yana 25-30% ga qisqarishi kutilib, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tizimini takomillashtirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan². Shundan kelib chiqib, tuproq unumdorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va ilg‘or agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishda tuproqlar unumdorligini ilmiy asoslangan holda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2022-yil 25-martdagi PQ-179-sonli “Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-iyundagi 510-sonli “Qishloq xo‘jaligida tuproqning agrokimyoviy tahlil tizimini

¹ <https://openknowledge.fao.org/>

² <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.

takomillashtirish, ekin yerlarida tuproqning unumdorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustivor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tuproqlar sug'orish va inson omilining keng qamrovli ta'siri ostida o'zgarishga uchrab borayotgan xossa va xususiyatlari va ularning geokimyo va biogeokimyosi bo'yicha xorijiy olimlardan V.M.Goldshmidt, M.A.Glazovskaya, A.I.Perelman, A.Kabata-Pendias, L.J.Munkholm, J.R. Brown va boshqalar, Respublikamiz olimlaridan M.A.Pankov, A.M.Maqsudov, G'.Yuldashev, R.Q.Qo'ziyev, O.K.Komilov, L.A.Gafurova, V.Yu.Isaqov, M.M.Toshqo'ziyev, X.H.Tursunov, A.U.Axmedov, N.Y.Abduraxmonov, A.J.Ismanov, G'.T.Parpiyev, V.A.Demkin, I.V.Kovda, F.R.Zaydelman, M.T.Isag'aliyev, A.T.Turdaliyev, T.Uraimov, D.M.Xoldarov, O'.T.Sobitov, U.B.Mirzayev, Sh.S.Mansurov, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova, M.B.Obidov, Z.J.Isomiddinovlar tomonidan olib borilgan. Biroq sug'oriladigan tuproqlardan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va amaliy mexanizmlar ayni hudud uchun umumiy tarzda bo'lib, tuproq qoplamida yuz berayotgan o'zgarishlar, unumdorligi va ekologiyasi uchun o'ziga xos xususiyatlari borasidagi, shuningdek, tuproq va ona jinsdagi elementlar geokimyosi borasidagi ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Andijon viloyati tumanlaridagi mavjud fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug'oriladigan yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproq sifatini baholash ishlarini bajarish» (2021-y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Shahrixonsoy yoyilmasi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining xossalarini sug'orma dehqonchilik ta'siridagi o'zgarishlari, unumdorligi hamda geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash hamda tuproqlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Shahrixonsoy yoyilmasi tuproqlarining shakllanishi va rivojlanishida tabiiy va antropogen omillar ta'sirini o'rganish;

sug'oriladigan tuproqlarning morfogenetik xossa-ko'rsatkichlarini o'zgarishini aniqlash;

sug'oriladigan tuproqlarning kimyoviy va agrokimyoviy xossalarini hamda meliorativ holatini aniqlash;

tadqiqot hududi tuproqlarining sug'orma dehqonchilik ta'sirida sodir bo'lgan o'zgarishlar dinamikasini qayd etish (olingan ma'lumotlarni tarixiy taqqoslash uslubi bilan tahlil qilish);

tayanch hududlar sug'oriladigan yerlarning 1:10000 masshtabli raqamli tuproq agrokimyoviy xaritanomalari tuzish;

tuproqlar geokimyoviy xossa va xususiyatlarini tadqiq etish va "ona jins-tuproq genetik qatlam" tizimida tuproq xossa va xususiyatlariga ta'sirini aniqlash.

tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tuproqlarning aniqlangan xossa va xususiyatlariga ko'ra tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Shahrixonsoy yoyilmasidagi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Shahrixonsoy yoyilmasidagi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarning morfogenetikasi, gumus va oziqa elementlari, sho'rlanish va unga ta'sir etuvchi omillar, tuproqlarning meliorativ holati, sho'rlanish va agrokimyoviy xaritanomalari, tuproqlarning geokimyoviy xossa ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar - geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan, kimyoviy tahlillar umumqabul qilingan uslublar, tuproq kimyoviy element tahlili O'zFA Yadro fizikasi ilmiy-tadqiqot institutida neytron-aktivatsion usulda hamda olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili «Microsoft Excel» dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shahrixonsoy yoyilmasi o'tloqi saz tuproqlarining sug'orma dehqonchilik ta'sirida transformatsiyalanishi, genetik qatlamlarda kechayotgan o'zgarishlar dinamikasi, tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida gidromorfizm darajasining kuchayishi hamda ushbu jarayonlarning yuzaga kelish mexanizmi ilmiy asoslangan;

tuproqlar haydov va haydov osti qatlamlari granulometrik tarkibining mayda qum va yirik chang fraksiyalari ortishi hisobiga og'ir qumoq→o'rta qumoq ko'rinishida transformatsiyalanganligi va quruq qoldiq miqdoriga ko'ra ham o'rtacha sho'rlangan darajadan sho'rlanmagan darajaga transformatsiyalanayotganligi aniqlangan.

tadqiq etilayotgan hudud tuproqlarining boshqa mintaqalardagi analoglariga nisbatan fosfor va kaliy bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha o'ziga xosligi, shuningdek, ko'milgan gumusli qatlamlarning mavjudligi va ularning gidromorf sharoitda konservatsiyalanish xususiyatlari isbotlangan.

o'rganilgan o'tloqi saz tuproqlar kimyoviy elementlarning migratsiyasi, akkumulyatsiyasi va differentsiatsiyasi "ona jins – tuproq genetik qatlam" tizimida aniqlangan.

Tadqiq etilgan tuproqlarda o'rganilgan bo'z tuproqli mintaqadagi gidromorf tabiatli tuproqlarga nisbatan Au, Na, Ba elementlari kam, Te, Zn, Sb elementlari miqdorlari ko'pligi, cho'l mintaqasi o'tloqi saz tuproqlariga nisbatan Na, Sr kam,

Fe, Cr, Co elementlarining ko'pligi aniqlangan hamda Mo va Zn elementlari bo'yicha 1:5000 masshtabdagi raqamli xaritanomalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar unumdorligini saqlash va qayta tiklash, ulardan samarali foydalanish bo'yicha tadbirlarni belgilash maqsadida tayanch maydonlarning 1:10000 miqyosli raqamli xaritanomalari ishlab chiqilgan.

tuproqlarining geokimyoviy xossa ko'rsatkichlari va ularning geografik taqqoslash natijalari asosida tuproqlarini geokimyoviy tavsiflash, tuproq-geokimyoviy, tuproq-ekologik monitoringi ishlarida tashxislash imkonini yaratilgan.

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda Mo va Zn mikroelementlarining ta'minlanganlik darajalari bo'yicha 1:5000 masshtabli xaritanomalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarni dala, laboratoriya va kameral usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, tadqiqot natijalari variatsion-statistik tahlil qilinganligi, ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati hududdagi sug'oriladigan o'tloqi saz va ko'milgan tuproqlarning o'ziga xos shakllanishi, rivojlanish sharoitlari va xossaxususiyatlari, unumdorligi, morfogenetik, agrokimyoviy xossalarini sug'orma dehqonchilik ta'sirida o'zgarishi, tuproqlarda sodir bo'layotgan jarayonlar dinamikasini ko'rsatib berilganligi, tuproqlarning hozirgi holati, shuningdek, geokimyoviy xossalari haqidagi ma'lumotlar ilk bora ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tuproqlar transformatsiyalanishi va ularning xossa va xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar asosida ularning unumdorligini oshirish, meliorativ holatini yaxshilashga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilib, ishlab chiqilgan 1:10000 masshtabli makro va mikroelementlarning raqamli xaritanomalari tuproqlar unumdorligini oshirishda o'g'itlashning maqbul me'yorlarini ishlab chiqish, geokimyoviy tadqiqotlar natijalari esa tuproq-ekologik monitoringlash ishlarida foydalanish masalalarini hal etishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida shu mutaxassislik bo'yicha tahsil olayotgan talabalar va magistrantlar uchun maxsus kurslarda yangi ilmiy ma'lumotlar bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shahrixonsoy yoyilmasi tuproqlari evolyutsiyasi, unumdorligi va agrogeokimyoviy xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ho'jaobod tumani "A.Nabiyev" massivi "Xabibullo chorbog'i" fermer xo'jaligining jami 33,7 gektar, Shahrixon tumani "Umarjon obod dalasi" fermer xo'jaligining jami 83 gektar sug'oriladigan maydonlarining 1:10000 masshtabli agrokimyoviy xaritanomalari ishlab chiqilgan va joriy etilgan (O'zbekiston

Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 16-dekabrda 05/05-04-934-son ma'lumotnomasi). Natijada fermer xo'jaligi organik va mineral o'g'itlardan foydalanish, mineral o'g'itlarni maqbul me'yorlarini belgilash, fosforli va kaliyli o'g'itlarni tabaqalashtirib qo'llash muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar agrofizik, agrokimyoviy va meliorativ xossa ko'rsatkichlari natijalari Andijon viloyati "Xabibullo chorbog'i" fermer xo'jaligining jami 33,7 gektar va "Umarjon obod dalasi" fermer xo'jaligining jami 83 gektar sug'oriladigan maydonlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 16-dekabrda 05/05-04-934-son ma'lumotnomasi). Natijada yerlarining meliorativ holatini yaxshilash va bu orqali tuproqlar unumdorligini oshirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan hamda xo'jalikdagi olinayotgan hosildorlikka nisbatan 3 sentnergacha qo'shimcha hosil olishga erishilgan.

Shahrixonsoy konus yoyilmasida tarqalgan sug'oriladigan gidromorf o'tloqi saz tuproqlar geokimyoviy ko'rsatkichlari ma'lumotlari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti Andijon filialida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 16-dekabrda 05/05-04-934-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat tuproqlarini geokimyoviy va biogeokimyoviy tavsiflash, tuproq-geokimyoviy, tuproq-ekologik monitoringi ishlarida foydalanilib, tuproqlardan oqilona foydalanish va ekologik sof mahsulotlar olishda muhim ilmiy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalarning aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyani tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shahrixonsoy yoyilmasi tuproqlarining o‘rganilish holati va ularning tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida o‘rganilgan mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, internet ma’lumotlari tahlil etilgan va yoritib berilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, sug‘orma dehqonchilik jarayonida inson omilining keng qamrovli ta’sirida tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorligini o‘zgarishi bo‘yicha, shuningdek, tuproqlar element tarkibi, o‘tkazilgan so‘nggi ilmiy tadqiqotlar misolida biogeokimyoviy xususiyatlariga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakuniy xulosasi sifatida sohada faoliyat ko‘rsatib kelayotgan bir qator O‘zbekiston hamda xorijiy olimlarning ishlarida Sharqiy Farg‘ona tuproqlarining xossa-xususiyatlari va meliorativ holati kam darajada o‘rganilgan bo‘lib, hudud tuproqlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni, tuproqlarning o‘ziga xos mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlarini davom ettirishni, jumladan, Shahrixonsoy yoyilmasi hududi tuproqlarida kechayotgan jarayonlarning yo‘nalishini aniqlash, tuproqlar unumdorligini saqlash, oshirish, geokimyoviy xossalarini tahlil qilish va tuproq xossalariga kimyoviy elementlar migratsiyasi, akkumulyatsiyasi va differentsiatsiyasining ta’sirini “ona jins – tuproq genetik qatlam” tizimida aniqlash borasida yangi ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Ta’biy iqlim sharoitlari, tadqiqotlar obyekti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, Shahrixonsoy yoyilmasi o‘tloqi saz tuproqlarining geografik joylashish o‘rni, geologik-litologik, geomorfologik, gidrogeologik va iqlimi sharoitlari hamda tuproqlarni shakllanishida inson faoliyatining roli, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot hududi Andijon viloyati vodiyning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, shimoliy-sharq va janubiy-sharqdan Farg‘ona va Pomir-Oloy tizmalari, g‘arbdan Markaziy Farg‘ona tekisligi o‘rab turadi. Hudud tog‘oldi va tog‘osti keng qiya tekisliklar zonasida joylashgan bo‘lib, asosan bo‘z tuproqlar mintaqasi va qisman Markaziy Farg‘ona zonasining cho‘l mintaqasi tuproqlari tarqalgan. Tadqiq etilayotgan hudud Andijon viloyatning janubiy qismidan shimoliy qismiga tomon, Shahrixonsoy oqimi yo‘nalishda bo‘lib, atrofida bo‘z va o‘tloqi tuproqlar keng tarqalgan, o‘tloqi tuproqlar maydoni shimolga, Shahrixon tumaniga tomon ortib boradi. Geomorfologik jihatdan yuqori qism Oyim-Ho‘jaobod –Marxamat adirorti botiqligi, o‘rta qismi Aravan Shahrixonsoy konus yoyilmasi va ularning Qoradaryoning yuqori terrassalari bilan tutashib ketgan hududlari, quyi qismlari Aravan – Shahrixonsoy konus yoyilmasi bilan tutash konuslararo pastqamliklarga to‘g‘ri keladi. Asosiy gidrogeologik sharoitlari Shahrixonsoy tizimi ta’siri ostida shakllanib, gidrogeologik sharoitlariga ko‘ra sizot suvlarining rejimi, minerallanishi va tuproqlarning tuz rejimlari keskin farq qilishi, saz rejimli tuproqlar tog‘oldi qiya tekisliklarida va yoyilmalarda tog‘lardan sizib oqayotgan bosimli sizot suvlarining barqaror bo‘lgan sharoitida hosil bo‘lishi yoritilgan.

Iqlimi kontinental. Yoz issiq, iyul oyining o‘rtacha harorati 25,5° C. Qish nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati -1,5°C. Vegetatsiya davri mart

oyining birinchi o'n kunligidan boshlab, noyabr oyining ikkinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. O'simliklar uchun foydali faol harorat $+4780^{\circ}\text{C}$ dan $+4890^{\circ}\text{C}$ gacha. Yillik o'rtacha harorat ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra $+13^{\circ}\text{C}$ $+14^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Kuzning birinchi sovuq kunlari oktyabrning oxirgi dekadasiga to'g'ri keladi. Bu zonada ko'p yillik o'rtacha yog'in miqdori 227 mm ni tashkil etib, yog'inlar asosan bahor va qish oylarida yog'adi


Tadqiqotlar Shahrixonsoy yoyilmasi sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar sharoitida o'tkazilib, dala-tuproq tadqiqotlari va kameral-analitik ishlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan dala, laboratoriya va kameral ishlarning standart uslublari bo'yicha amalga oshirildi. Tuproq tahlillari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan usullar, morfologik, tarixiy - taqqoslash, kimyoviy - analitik hamda profil usullaridan, shuningdek, B.B.Polinov, M.A.Glazovskaya, A.I.Perelmanlar tomonidan tavsiya etilgan tizimli pedogeokimyoviy usullaridan foydalanildi. Kimyoviy tahlillar tuproq kimyoviy element tahlili O'zFA Yadro fizikasi ilmiy-tadqiqot institutida neytron-aktivatsion analiz usulida bajarildi.

Dissertatsiyaning **"Shahrixonsoy yoyilmasi sug'oriladigan tuproqlarining xossa va xususiyatlari va ularning tabiiy va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi"** deb nomlangan uchinchi bobi to'rtta paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragrafda hudud o'tloqi saz tuproqlarining kelib chiqishi, xossa va xususiyatlari haqida yoritib o'tilgan. Shahrixonsoy barpo etilishi va sug'orish maqsadlarida foydalanish boshlanishi hudud tuproqlarida gidromorfizm sharoitlarining kuchayishiga olib keldi. Umumiy holda sizot suvlarining filtratsiyalanayotgan suvlar bilan to'yinishi va ular sathining tuproq kesmasida barqaror turg'un holatda bo'lishini ta'minladi. Deyarli hamma yerda sug'orib dehqonchilik qilinganidan, vegetatsion davridagi sug'orishlar, sug'orish tarmoqlaridagi suvlarning filtratsiya bo'lishi, shuningdek, sho'rlangan tumanlarda tuproqlarni yuvish natijasida grunt suvlari butun vegetatsiya davrida, hatto kuzda ham yuzada joylashadi. Namlik rejimining bunday tipi o'zining bir qator belgilariga ko'ra allyuvial gidromorf tuproqlardan farqlanuvchi tuproqlarni vujudga keltiradi, bu esa o'tloqi saz tuproqlarni alohida tuproqlar sifatida ajratishga asos bo'ladi.

Keyingi paragraflarda tanlab olingan uchta geomorfologik tuman va undagi tayanch maydonchalar kesimida tuproqlarining evolyutsiyasi, shakllanishi va rivojlanishida tabiiy va antropogen omillar ta'siri va tuproqlarning xossa-xususiyatlari va ularni dehqonchilik ta'sirida o'zgarishi deb nomlangan kichik paragraflarda tuproqlar Shahrixonsoy suvlari bilan sug'orib dehqonchilik qilinishi davomida yuz bergan o'zgarishlar jarayonlari tahlil qilingan.

Tuproqlar antropogen omilning sug'orish va xo'jalik faoliyati ta'sirida keng qamrovli o'zgarishlarga uchraydi. Natijada, yuqorida qayd etib o'tilganidek, tabiiy holdagi qatlamlar o'zgarishga yuz tutib, haydov va haydov osti agroirrigatsion qatlamlar shakllanishga yuz tutadi. Vaqt o'tishi bilan chimli va chim osti qatlamlari o'simliklar formatsiyasining o'zgarishi, yerni chuqur va sayoz ishlash kabi ta'sirlar tufayli ingichka popuk ildizlilar kamayib, o'q ildizlilar chuqurroqqa

kirib borishi, moddalarning qayta tabaqalanishi kabi omillar tufayli ular bir jinsli haydov qatlamiga transformatsiyalanadi.




1-rasm. Tuproqlar granulometrik elementlari fraksiyalik tarkibi o'zgarishlari.

Bu holat ularning morfologik tasvirida yaqqol ifodalanadi.

Tuproqlarning asosiy xossa va xususiyatlari ularning mexanik tarkibi tuzilishidan kelib chiqib shakllanadi. Hudud tuproqlarining qo'riq holati kesma tavsifi va tahlil ma'lumotlariga ko'ra tuproqlar yuza 30 sm gacha bo'lgan qatlamlari o'rta va uning ostki qatlamlari og'ir qumoq mexanik tarkiblilik bilan xarakterlangan. Shahrixonsoy suvlari bilan sug'orish tufayli keltirilma jinslar doimiy yotqizilishi hisobiga tuproqlar mexanik tarkibi o'zgarishga yuz tutib, bu o'zgarishlar asosan, haydov va haydov osti qatlamlarida aniq ifodalangan. O'zgarishlar o'rganilgan barcha tayanch maydoncha tuproqlarida asosan yirik chang (0,05-0,01mm), mayda qum (0,1-0,05mm) va qisman o'rta chang (0,01-0,005 mm) ortishi hisobiga sodir bo'lib, haydov qatlamlarida tegishlicha 5-8., 8-10 va 3-4%, haydov osti qatlamlarida 3-4., 4-6 va 2-4% ni tashkil etadi. O'zgarishlar darajasi oqim bo'ylab quyi qismlarga tomon kamayib boradi. Natijada, tuproqlar yuza qatlamlarida fizik qum (>0,01 mm) miqdorining nisbatan ortishi (3-6%) yuz berib, mexanik tarkibning bir daraja yengil toifaga transformatsiyalanishi yuz beradi.

Tuproqlar meliorativ xossa ko'rsatkichlari bo'yicha ham bir qator o'ziga xoslik kasb etadi. Umumiy holda taqqoslash davrining ilk davriga nisbatan tuproqlar quruq qoldiq miqdoriga ko'ra kuchsiz va o'rtacha sho'rlangan darajadan sho'rlanmagan tuproqlarga tomon transformatsiyalangan. Tadqiq etilgan tuproqlar hududdagi boshqa tuproqlardan sho'rlanish xarakteri bilan o'zaro farq ko'rinishlarga ega, barcha tuproqlar sho'rlanish tipi sulfatli. Tuproqlar suvda oson eruvchi umumiy tuzlar miqdori (quruq qoldiq) miqdoriga ko'ra butun hudud bo'ylab sho'rlanmagan toifaga kiradi. Hudud tuproq qoplamida sho'rlanishning kuchsiz darajalari suvli so'rimdagi gidrokarbonat ionlari (0,02-0,04%) hisobiga yuzaga kelib, ayrim qatlamlarda xlor ionining me'yoridan biroz ortishi (0,02%) hisobiga ham yuzaga keladi.

Sug'orma dehqonchilik jarayonida, ayniqsa hududning quyi qismi tahlillariga ko'ra umumiy ishqoriylik gidrokarbonat ionlarining ko'payishi hisobiga kuchsiz darajada ortgan. Hudud tuproqlarida ham, unga yondosh hudud tuproqlarida ham tuproqlarda xlor ionining nisbatan kamayib borish tendensiyasi mavjudligi ko'zga tashlanadi va ular kichik qiymatlarga ega bo'lib, 0,01 % atrofida. Ularning miqdori 1967-2014 yilgi ma'lumotlarga ko'ra ham, bizning ma'lumotlarga ko'ra ham minimal miqdorlar (0,004-0,007%) ga ega. Huddi shuningdek, sulfat ionlari bo'yicha shunday holat kuzatilib, ilk tadqiqotlarga (1949 y) nisbatan sezilarli kamayish kuzatiladi va o'rtacha 0,05% atrofida bo'ldi. Kationlar tarkibi kalsiyning miqdoriy ustunligi va keyingi o'rinlarda magniy va natriy egallashi bilan xarakterlanadi. Tuproqlarda gidrokarbonat ionlarining ortib borishi, sulfatli tuzlarning kamayishi gips va karbonatlar miqdori bilan bog'liq.




2-rasm. Tuproqlarida suvda oson eruvchi tuzlar miqdoriy o'zgarishlari.

Farg'ona vodiysining boshqa hududlaridan, shuningdek, tadqiqot hududi muqaddam tekshirish olib borgan tadqiqotchilar natijalaridan farqli o'laroq, yoyilma tuproqlarida gips miqdori kam, qatlamlar bo'ylab 1% atrofida uchraydi va shu sababli Shahrixonsoy yoyilmasi o'rganilgan o'tloqi saz tuproqlarida arzikli qatlamlar shakllanishi kuzatilmaydi. Lekin, sho'xli qatlamlar hudud tuproqlarida keng tarqalgan va muqaddam e'tirof etilganidek, karbonatlar CO₂ si tuproqlar yuza qatlamlaridan (8-11%) quyi qatlamlariga tomon ortib boradi va quyi qatlamlarda maksimumga (16-18%) yetadi va suvli so'rim ion tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida geomorfologik tumanlar kesimida tuproqlardagi gumus va oziqa moddalarining sug'orma dehqonchilik davomida qo'riq analoglariga nisbatan, shuningdek, yondosh o'xshash hudud tuproqlari bilan o'zgarishlari taqqoslanishi asosida agrokimyoviy xossa ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar va o'ziga xosliklari yoritib berilgan va olingan natijalar tahlili asosida unumdorlik holatiga baho berilgan. Hudud tuproqlari o'zining o'tmish qo'riq holatiga nisbatan antropogen omilning sug'orish bilan bog'liq ta'sirida oziqa moddalar miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishlari ilmiy adabiyotlarda qayd etib o'tilgan holatdagi kabi o'zgarishlarni qayd etadi (3-rasm). Tuproqlar o'zining

qo'riq va yangi o'zlashtirilgan o'tmish holatida hozirgi davr holatiga nisbatan gumus va boshqa oziqa moddalariga boyligi bilan xarakterlangan.

O'zlashtirishning keyingi davrlarida kamayish va qo'llanilgan tadbirlar ta'sirida asta-sekin ko'payishga yuz tutib, hozirda allaqachon stabil holatga o'tib, asta-sekin ko'payib borishga tomon siljigan. Bu o'zgarishlar gumus bo'yicha ko'payish o'rtacha 0,2-0,3% atrofida bo'lib, umumiy holda haydov va haydov osti qatlamlarda 2-1%, quyi qatlamlarda 0,6-0,9% atrofida, ta'minlanish darajalariga ko'ra o'rtacha va o'rtachadan yuqori darajada. Tuproqlarda azot yalpi shakllari bo'yicha miqdoriy ko'rsatkilari gumus ko'rsatkilariga to'g'ri mutanosib holda shakllangan bo'lib, tuproqlar haydov qatlamlarida 0,1-0,15%, haydov osti qatlamlarda 0,08-0,1% atrofida. Tuproqlari fosforning yalpi shakllari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga (0,2-0,3%) ega bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich uning o'rta qismiga (0,3%) to'g'ri keladi va bu ko'rsatkichlar yondosh hududlarda rivojlanayotgan tuproqlarga nisbatan yuqori. Shu kabi hudud tuproqlaridagi o'ziga xoslik yalpi kaliyning fosfor miqdorlagia nisbatan teskari mutanosiblikda o'zgarishlari bilan xarakterlanadi.



3-rasm. Tadqiqot hududi tuproqlarida gumus va oziqa moddalar yalpi shakllarining o'zgarishlari.

Kaliyning yalpi shakllari hududga xos ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan ko'rsatkichlar va yondosh hudud o'tloqi tuproqlariga nisbatan kichik ko'rsatkichlar kuzatilib, umumiy holda qatlamlar bo'ylab asosan 1% dan kam me'yorlarda. Oziqa elementlarining yalpi miqdorlaridan qat'iy nazar ularning harakatchan shakllari miqdori kam, kam ta'minlangan darajada.

Hudud tuproqarida, huddi Markaziy Farg'ona o'tloqi saz tuproqlarida keng qamrovli kuzatilgani kabi, ko'milgan gumusli qatlamlar ham uchrab turadi. Ushbu tuproqlar yuqori keltirilma qatlamlari sug'orish va ishlov berish ta'sirida mintaqaviy o'tloqi saz tuproqlarniki kabi haydov va haydov osti qatlamlariga to'laligicha transformatsiyalangan. Shakllangan agroirrigatsion qatlam to'laligicha normal tuproqlar morfologiyasini ifodalashi bilan birgalikda ko'milgan qatlamlar o'z ko'rinishini asosan saqlab qolgan. Shuningdek, agrokimyoviy xossalari ham o'zgarishlar yuqorida qayd etilgan kabi yo'nalishda yuz bergan bo'lib, gumus 3%,

umumiy azot 0,2%, fosfor yalpi shakli 0,25% va kaliyning biroz ko'pligi (1,2%) bilan xarakterlanadi. Tuproqlar morfologiyasi va oziqa moddalar ko'rsatkichlariga ko'ra ushbu qatlamlar gidromorfizm sharoitda konservatsiyalangan holatga o'tgan.

Dissertatsiyaning **“Tuproqlar geokimyoviy xususiyatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo'lib, *Tuproqlarda elementlar geokimyosi deb nomlangan birinchi paragrafida* tuproq, uning element tarkibi, pedosferaning elementar tarkibining litosfera tarkibiga ko'ra shakllanishi uning elementar tarkibi o'xshashligi klark va A.P.Vinogradov jadvali bilan asoslantirilgan holda bayon etilgan. Muayyan hudud tuproq element tarkibi litosfera tarkibiga ko'ra shakllanar ekan, u bilan bog'liq holdagi o'ziga xos qonuniyatlarga bo'ysunadi va u bilan bog'liqligini o'z tarkibida aks ettiradi. Shunga ko'ra litosfera va tuproqlar uchun V.M.Goldshmidt, V.I.Vernadskiylar hozirgacha o'zining kuchini yo'qotmagan elementlarning geokimyoviy nuqtai nazardan tasnifi ishlab chiqilganligi va uning mazmun va mohiyati haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda tuproq ham o'z navbatida tabiat zanjiri ichida boshqa tabiiy komponentlar bilan bog'liq holda rivojlanadi yoki degradatsiyaga uchraydi. Bundan tashqari, tuproqning tabiatda o'rnini va undagi elementlarning miqdori, sifati va ularning migratsiyasiga bir qator antropogen omillar ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatib, bu boradagi ma'lumotlar hozirga qadar turli hududlarda o'tkazilgan tadqiqotlarda o'z aksini topganligi yoritib berilgan.

Bobning *Nodir metallar va siklik elementlar geokimyosi* deb nomlangan ikkinchi paragrafida nodir metallar va siklik elementlarning tuproq-geokimyoviy xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra umumiy holatda siklik (aylanma) elementlar tarqalishi ularning tuproqdagi klark miqdorlariga hamda gumus va mexanik tarkibiga bog'liq ravishda o'zgarib borishi o'rganilgan hudud o'tloqi saz tuproqlari uchun ham xos bo'lib, bu borada vodiyni o'rganilgan bo'z tuproqlari bilan o'xshashlikni o'zida ifodalaydi. Shu bilan birga tuproqlar kalsiyga boyligi garchi, bo'z tuproqli mintaqa tuproqlari kalsiyli minerallarga boy (ayniqsa, arzikli, sho'xli va metamorfik qatlamlar) bo'lsada, tadqiqotlarda nisbatan kichik ko'rsatkichlar olinganligi, shu bilan bir qatorda o'rganilgan hudud tuproqlarida gipsli minerallar kam bo'lgani holda uning tuproq klarki 5 dan yuqori bo'lishi qayd etiladi. Shunga ko'ra bu borada karbonatli (kalsiyli) mintaqa tuproqlari uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilish zarurati haqida so'z yuritiladi.

Haydov qatlamda siklik elementlar miqdorining kamayib borish tartibi quyidagicha ko'rinishni oladi.


$$\begin{aligned}
 &1\text{-kesma: } \frac{\text{Fe}}{3,3} > \frac{\text{K}}{0,96} > \frac{\text{Na}}{0,37} > \frac{\text{Ba}}{0,078} > \frac{\text{Mn}}{0,039} > \frac{\text{Sr}}{0,025} > \frac{\text{Zn}}{0,011} > \frac{\text{Cr}}{0,008} > \\
 &\frac{\text{Co}}{0,0015} > \frac{\text{As}}{0,0012} > \frac{\text{Ni}}{0,001} > \frac{\text{Hf}}{0,00046} > \frac{\text{Sb}}{0,000013} > \frac{\text{Mo}}{0,00001}; \\
 &2\text{-kesma: } \frac{\text{Fe}}{2,58} > \frac{\text{Ba}}{0,74} > \frac{\text{K}}{0,70} > \frac{\text{Na}}{0,42} > \frac{\text{Mn}}{0,033} > \frac{\text{Sr}}{0,029} > \frac{\text{Zn}}{0,008} > \frac{\text{Cr}}{0,008} > \\
 &\frac{\text{Ni}}{0,004} > \frac{\text{Co}}{0,0012} > \frac{\text{As}}{0,0008} > \frac{\text{Hf}}{0,00035} > \frac{\text{Sb}}{0,00012} > \frac{\text{Mo}}{0,00003};
 \end{aligned}$$

$$3\text{-kesma: } \frac{\text{Fe}}{3,18} > \frac{\text{K}}{1,14} > \frac{\text{Na}}{0,40} > \frac{\text{Ba}}{0,09} > \frac{\text{Mn}}{0,032} > \frac{\text{Sr}}{0,032} > \frac{\text{Zn}}{0,010} > \frac{\text{Cr}}{0,0085} > \\ \frac{\text{Ni}}{0,0035} > \frac{\text{Co}}{0,0015} > \frac{\text{As}}{0,0011} > \frac{\text{Hf}}{0,0006} > \frac{\text{Sb}}{0,00013} > \frac{\text{Mo}}{0,00007};$$

